

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOV BEHRUZ DILSHOD O‘G‘LI

**QASHQADARYO VILOYATIDA JISMONIY TARBIYA VA
SPORT TARIXI (1991-2022 yy.)**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Karimov Behruz Dilshod o‘g‘li

Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport tarixi (1991-2022 yy.)..... 5

Каримов Бехруз Дилшод угли

История физического воспитания и спорта в Кашкадарьинской области
(1991-2022 гг.) 23

Karimov Bekhruz Dilshod ugli

History of physical education and sports in Kashkadarya region
(1991-2022) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 50

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOV BEHRUZ DILSHOD O‘G‘LI

**QASHQADARYO VILOYATIDA JISMONIY TARBIYA VA
SPORT TARIXI (1991-2022 yy.)**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Tar.1410 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNeT" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xasanov Akram Muminovich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qabulov Eshbolta Atamuratovich

tarix fanlari doktori, professor

Abdullayev O'ktamjon Sheraliyevich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

Y.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida dunyoda jismoniy tarbiya va sport davlatlarning rivojlanishi hamda xalqaro miqyosda qanday nufuzga ega ekanini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Zero, sport nafaqat inson salomatligi uchun, balki xalqlar o'rtasida tinchlik aloqalarini mustahkamlash, jahon ommasining o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mehnat samaradorligi va madaniy taraqqiyot uchun ham muhim pillapoya vazifasini o'taydi. Shu boisdan ham bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni davlat siyosati darajasiga olib chiqmoqdalar. Xususan, aholi salomatligini ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sport musobaqalarini tashkil etish, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish shular jumlasidandir.

Jahondagi juda ko'plab katta va kichik mamlakatlarning ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida "sport – tinchlik elchisi" degan an'anaviy xalqaro shiorga amal qilingan holda jismoniy tarbiyaning inson salomatligidagi o'rni, aholi orasida sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishda sport turlaridan keng foydalanish, sport musobaqalarini tashkil etish va ularda ishtirok etuvchi davlatlar safini kengaytirish, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida kadrlar tayyorlash, sport turlarini modernizatsiyalash va ommalashtirish masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng barcha sohalar qatori jismoniy tarbiya va sport sohasiga ham katta e'tibor berila boshlandi. "Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim-tarbiya maskanlari bilan birga yangi-yangi sport maskanlari va majmualari, stadionlar, suzish havzalari barpo etilayotgani farzandlarimizning qalbida sportga mehr uyg'otmoqda. Ayniqsa, bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan ustoz va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan katta ishlarimiz ijobiy samara bermoqda"¹. Ayniqsa, mamlakatimizda 2019–2023-yillarga mo'ljallangan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi sohadagi islohotlarning samaradorligini ta'minlash va respublikaning xalqaro sport musobaqalaridagi nufuzini oshishiga xizmat qildi. Shu boisdan mamlakatimizda, xususan, Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport sohasida to'plangan ko'p yillik tajribani tarix fanining yangi nazariy metodologiyasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–4956-son, 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5368-son, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5924-son farmonlari, 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston NMGU, 2021. – B. 223.

sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3031-son, 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3306-son, 2020-yil 3-noyabrdagi "Jismoniya tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4877-son, 2021-yil 16-iyundagi "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5148-son qarorlari va tizim faoliyatini takomillashtirishga oid boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonini o'rganishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'rganilayotgan davrga oid adabiyotlarni mazmuni va xarakteriga ko'ra ikki guruhga bo'lib tahlil etish mumkin:

birinchi guruh adabiyotlariga mustaqillik yillarida nashr etilgan ishlar;

ikkinchi guruh adabiyotlariga esa xorijiy mualliflarning mavzuga doir ilmiy ishlari.

Birinchi guruh, ya'ni mustaqillik yillarida nashr etilgan mualliflarning, xususan, R. Abdumalikov va X. Eshnazarov, A. Akromov, H. Botirovlarning² o'quv qo'llanmalarida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning holati va bu sohani o'rganish masalalari ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, O. Bo'riyev, M. Rahimov, F. Karimov, B. To'raboyev va B. Daminov, H. Botirova, F. Xo'jayev, A. Normurodov, K. Mahkamdjanov, F. Nurmatov, L. Inozemeseva, L. Rustamov, A. Ro'ziyev, N. Azizov, B. Nosirova, I. Jalilovlarning³ monografik tadqiqot ishlarida mustaqillik yillaridagi sportning bir qancha turlari tarixi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni, sport sohasiga bo'lgan e'tiborning yangi bosqichga chiqishi

² Абдумаликов Р., Эшназаров Ж.Э. Аждодлар жисмоний маданият тарихини ўрганиш масалалари // Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Абдумаликов Р., Акромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихини ўрганиш масалалари // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1994; Абдумаликов Р. Жисмоний маданият ва спорт ихтисослигидаги назарий талабларни бошқарувчилик фаолиятларига ўргатишнинг амалий асослари. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти, 1994; Ботиров Х. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Ибн Сино нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1993; Акромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.

³ Бўриев О. Ўзбек халқи бой қадриятлари. – Қарши: "Насаф", 2005; Раҳимов М. Шарқ алломалари: халқ ўйинлари ҳақида. – Тошкент: Мерос, 2002; Керимов Ф.А. Спорт кураши. – Тошкент: Янги аср авлоди НММ, 2005; Тўрабоев Б., Даминов И. Дзю-до. – Тошкент, 2014; Ботирова Х. Жисмоний тарбия ва спорт тарихи. – Тошкент, 1993; Абдумаликов Р., Абдуллаев А., Норқулов Ш. Жисмоний тарбия илмини такомиллаштириш масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996; Хўжаев Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997; Нормуродов А. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: Тафаккур, 1999; Бобобеков Х. Ўзбек кураши довуғи. – Тошкент: Шарқ, 2002; Маҳкамджанов К., Нурматов Ф., Иноземесева Л., Рустамов Л. Спорт байрамларини ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2008; Сайдуллаев Н.Б. Современное состояние культуры Узбекистана и перспектива её развития // Автореф. дис. канд. истор. наук. – Ташкент, 2002; Тошпўлатов Ж. Чавандоз ўзбегим йигитлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009; Рўзиев А.Н., Азизов Н. Ўзбек миллий бел олиш кураш тарихидан. – Тошкент: Фан ва технология, 2010; Носирова Б. Армуғон. – Тошкент: 2019; Жалилов И. Қашқадарё воҳаси аҳолиси миллий ўйинларининг трансформация жараёnlари. – Қарши: Intellect nashriyoti, 2023.

va Qashqadaryo vohasida milliy o'yinlar transformatsiyasi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgani bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, davriy matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarda⁴ Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sportning holati, rivojlanishi, sohadagi kamchiliklar, viloyat sportchilarining jismoniy tarbiya va sport sohasida erishgan natijalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari Z.A. Abdullayeva, B. Nazirov, O'. Abdullayev, N. Sharopova, S. Omonova, D. Shodiyevalarning⁵ ilmiy tadqiqot ishlarida mustaqillik yillarida o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportning holati, moddiy texnik bazaning yaratilishi, xotin-qizlar sporti masalalari ko'rsatib o'tilgani bilan ahamiyatli hisoblansa-da, ushbu tadqiqotlar mustaqillik yillaridagi Qashqadaryo viloyatining jismoniy tarbiya va sport tarixiga bag'ishlanmagan. Biroq ushbu tadqiqotlardan metodologik asos sifatida foydalanildi.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga esa xorijiy mualliflarning mavzuga doir ilmiy ishlari bo'lib, ularda O'zbekiston sportining tarixi va mustaqillik yillarida rivojlanishi bilan bog'liq jihatlar, sportning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, sport musoboqalarining tashkil etish asoslari bilan bog'liq jihatlarini ko'proq o'z ifodasini topgan⁶. Ushbu tadqiqotlarda O'zbekiston sportchilarining

⁴ Полвонлар билан учрашув // Қашқадарё ҳақиқати, 1996 йил 14 декабрь; Фючерс турнирига ҳозирлик // Насаф, 2004 йил, 1–15 апрель; Қаршида теннис байрами // Насаф, 2003 йил 4 апрель; Узоқова М. Жисмонан бакуват бўлиш сири // Насаф, 2007 йил 18 май; “Универсиада – 2007” иштирокчилари тақдирланди // Насаф, 2007 йил, 13 июль; Ёшлик, гўзалик, баркамоллик байрами // Насаф, 2007 йил 29 июнь; Дунё полвонлари беллашдилар // Насаф, 2008 йил, 12 сентябрь; Кенжаева Д. Энг улуг иморат // Qashqadaryo, 2008, 29 август; Назирова З. Аввал Қатар, кейин Колумбияга // Қашқадарё, 2015, 27 август; Тарихий 22 ғалаба ва воқеа // Қашқадарё, 2013 йил, 30 август; Абдураззоқ Даврон. Рақамлар, натижалар, ғалабалар // Қашқадарё, Спорт. 2015 йил, 19 февраль; Улар Кореядан ғалаба билан қайтишди // Қашқадарё. Ёшлар спорти, 2015 йил, 11 сентябрь; Ҳайитов М. Санжар Файзиев мусобақа ғолиби // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 30 январь; Соғлом турмуш тарзи кенг тарғиб қилинмоқда // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 28 февраль; Норхўжаева Н. Қашқадарёлик икки қиз жаҳон чемпиони бўлди // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 15 март; Спорт соҳасида малакали кадрларга эҳтиёж юқори // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 15 июнь; Жаҳонгиров Б. Чемпионлар эътирофда // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 27 июнь; Ғозиев А. Икки нафар спортчимиз Осиё чемпиони бўлди // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 30 сентябрь; Қашқадарёлик қиз Осиё чемпиони бўлди // Қашқадарё спорти, 2019 йил; Мейлиев М. Ёш боксчимиз Осиё чемпиони бўлди // Қашқадарё спорти, 2019 йил, 30 октябрь.

⁵ Абдуллаева З.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортнинг шаклланиш ва ривожланиш тарихи (1991–2006) // Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2009. – Б. 28; Назиров Б. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи (XX аср – XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Термиз: 2021; Абдуллаев Ў. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқ ва муаммолар (1991–2018 й.й.) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2021; Шаропова Н. Ўзбекистон жанубий вилоятларида умумтаълим мактаблари тизимидаги ислохотлар ва унинг натижалари (1991–2017 йй) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Термиз, 2021; Омонова С. Ўзбекистонда хотин-қизлар спортини йўлга қўйиш ва ривожлантириш иши тарихи (1991–2021 й.й.) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2022; Шадиева Д. Қарши Давлат Университети: ташкил топиши ва ривожланиш босқичлари // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2024.

⁶ Heinila K. Sport and International Understanding: A contradiction in term Sociology of Sport. Vol.2.1985. – №3. – P. 241; Michael A. Messner. Out of Play: Critical Essays on Gender and Sport. – Albany: State University of New York Press, 2007; Pierre Bourdieu. Sport and Social Class // Social Science Information 17, no. 6 (1978). – P. 819–840; Richard Gruneau. Class, Sports, and Social Development. – Amherst: University of Massachusetts Press, 1983; Sevet Akyildiz. Soviet Physical Culture in Uzbekistan Implementation and Social Impact // Sports and Coaching: Pasta and Futures, Manchester, Manchester Metropolitan University. 2012, (Chapter6). – P. 106-123; Shari L. Dworkin, Michael A. Messner. Just Do ... What? Sport, Bodies, Gender, in Revisioning Gender, ed. Myra Marx Ferree, Judith Lorber and Beth B. Hess. Thousand Oaks, CA: Sage, 1999. – P. 341–364; Sheila Scraton and Anne Flintoff, ed. Gender and Sport: A Reader. – London: Routledge, 2002; Visualities – Sports, Bodies, and Visual Sources // special issue, Historical Social Research 43, no. 2 (2018). – P. 7–24.

jahon arenalaridagi ishtiroki, xususan, Qashqadaryo viloyati sportchilarining xalqaro musobaqalardagi ishtiroki yoritilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilgan ishlar, bunyod etilgan sport inshootlari, mazkur sohada faoliyat yuritgan sport fidoyilari haqida ma'lumotlarni ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasining huquqiy asoslarining shakllanishi va Qashqadaryodagi tatbiqini yoritish;

O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojlantirilishida Qashqadaryo viloyatining o'rnini ko'rsatish;

Qashqadaryo viloyatida futbol sport turining rivojlanishini tahlil qilish;

viloyatda kurash sport turining rivojlanishini tahlil qilish;

viloyatda turli sport turlarining rivojlanishini yoritish;

bolalar sportiga bo'lgan e'tibor va erishilgan natijalarni asoslash;

bolalar sport inshootlarining moddiy texnik bazasi va muammolarini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mustaqillik yillarida Qashqadaryoda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish tarixi, holati, undagi o'zgarishlar va muammolari masalalari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati, mamlakat miqyosida o'tkazilgan uch bosqichli sport o'yinlari, xalqaro musobaqa va turnirlar, sportchilar erishgan yutuqlar, Milliy olimpiya qo'mitasi, olimpiya o'yinlarida qashqadaryolik sportchilarning ishtiroki kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid tadqiqot olib borishda kompleks yondashish, tizimlilik, muammoviy-maqсадli, tarixiy, qiyosiy, mantiqiy yondashuv, og'zaki tarix hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'ligini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etilgani, Qashqadaryo viloyatida yoshlarni sportga keng jalb qilinib va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olingani, Qashqadaryo viloyatida ayni vaqtda 14-30 yoshlilar orasidan sport bilan shug'ullanuvchilar soni 285 mingdan ortib, viloyatdagi 4 mingdan ziyod sport-sog'lomlashtirish obyektlari ular uchun xizmat qilayotgani sabab sambo bo'yicha Bohodir Boqiyev, Musharraf Ibodullayeva, Maftuna Ergasheva; karate turi bo'yicha Maftuna Samadova, Asadbek Mamanazarov, Mushtariybonu Ochilova; Paralimpiya chempionlari dzyu-do bo'yicha Dovurxon Karomatov, yengil atletika bo'yicha Asila Mirzayorova jahon arenalarida bronza va oltin medallarni qo'lga kiritgani dalillangan.

Qashqadaryo viloyatining bosh futbol jamoasi “Nasaf” mustaqillik yillarida O‘zbekiston chempionati o‘yinlarida 10 bor bronza, 4 marta kumush, 1 marta oltin, kubok o‘yinlarida esa 4 marta oltin va OFK kubogini qo‘lga kiritgani, “Mash‘al” futbol jamoasi 2006-yilda O‘zbekiston kubogi finalchisi bo‘lgani, ayollar futbol jamoasi “Sevinch” futbol klubi ayollar futzali tarixida yagona yetakchi jamoa sifatida nom qozongani – mamlakat chempionatida 15 marta oltin, 4 marta kumush, 1 marta bronza medalini qo‘lga kiritgani, 2007–2008, 2008–2009-yilgi mavsumlarda o‘ziga xos rekord o‘rnatgan holda O‘zbekistondagi ayollar futbolida yutish mumkin bo‘lgan barcha sovrinlarni, 2009-yilda “Yevropa kubogi” sohibi, “Podmoskovnaya jemchujina” musobaqasida oltin medalni qo‘lga kiritgani viloyatda futbol birinchi raqamli sport turiga aylanganligi isbotlangan;

Qashqadaryo viloyatida 2005-yilda 21 ta stadion, tennis kortlari, sport zallari, 8 ta suzish havzasi va boshqa inshootlar mavjud bo‘lib, 26 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabida 689 ming kishi (qishloq joylarida 614 ming) doimiy ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullangani va bu ko‘rsatkich yildan yilga ko‘payib, 2019-yilda viloyat jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tizimida 17 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabi, 3 ta ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktabi, 2 ta ixtisoslashgan maktab-internati faoliyat ko‘rsatgani, 2021-yilda viloyatdagi 17 ta sport ta‘lim muassasalariga 1 mlrd 131 mln so‘mdan ortiq 3 turdagi sport jihozlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg‘asi sifatida yetkazib berilganligi asoslangan;

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati hududida sport turlarining ommaviyligini oshirish, yoshlarni sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishlarida amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida Nishon tuman Nuriston shaharchasida “Turon” yoshlar klubi, Qamashi, G‘uzor, Koson va Yakkabog‘ tumanlarida ko‘ptarmoqli bolalar sport majmualari foydalanishga topshirilgani, viloyatning tuman maktablarida ham bolalarni sport bilan shug‘ullanishi uchun viloyatning eng chekka qishloq joylarida qurilgan 12 ta TIP sport majmualari va 63 ta sport zallarida ommaviy sport musobaqalari o‘tkazilgani, Qarshi shahrida va Koson tuman Guvalak qishlog‘ida viloyat bolalar va o‘smirlar sport maktabi uchun badiiy gimnastika zali qurib foydalanishga topshirilgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda, avvalo, huquqiy asosning yaratilishi, qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo‘lgan milliy sport turlarining rivojlantirilishi, sport qo‘mtalari va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimining barpo etilishi, sport sohasida kadrlar tayyorlash muammosining dolzarb ahamiyat kasb etishi, mintaqaviy, xalqaro musobaqalar hamda jahon chempionatlari, olimpiya o‘yinlarida sportchilarimizning ishtiroki va ularning erishayotgan natijalari, sportchi xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash, ularni moddiy rag‘batlantirish, shuningdek, sog‘lom avlodni tarbiyalashda sport sohasini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, jismoniy tarbiya va sport sohasi tarixiga oid hisobotlar va davriy nashrlarni aniqlash va tahlil qilish asosida Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport sohasi tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik jihatlarini aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mustaqillik yillarida qashqadaryolik sportchilarning mamlakatimiz sporti rivojiga qo'shgan hissasini aniq manbalar asosida o'rganish va xolisona ilmiy tahlil etish hamda zarur tavsiyalar berish ilmiy ishning eng asosiy masalasi hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ham mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy ishlar olib borilgan. Mamlakatimiz sportchilari nafaqat yurtimizda, balki xalqaro musobaqalarda ham o'zlarini ko'rsatib kelmoqdalar. Ammo Qashqadaryoning jismoniy tarbiya va sport salohiyatini yaqqol ko'rsatib beruvchi biror bir umumlashtirilgan manba hozirgi kunga qadar yaratilmagan. Ushbu dissertatsiyada mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi, yetuk sportchilar yetishib chiqqani, o'zlarining olamshumul g'alabalari bilan yurtimizni butun dunyoga tanitgani bayon qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ilmiy ishda yoritilgan masalalar Qashqadaryoda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'zgarishlar, xususan, uning tarixi, yutuq va kamchiliklari haqida muhim ma'lumotlar bera oladi. Ishda keltirilgan ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlarida "Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport tarixi" kurslari bo'yicha maxsus darslar o'tishda, shuningdek, Mustaqil O'zbekiston tarixining jismoniy tarbiya va sport sohasini batafsil yoritishda muhim manba sifatida foydalanish tavsiya qilinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sport tarixiga doir olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflardan:

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati sportini rivojlantirish tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgani, bu borada davlat budjetidan katta mablag'lar ajratilgani, Olimpiada musobaqalariga tayyorgarlik ishlarini kuchaytirish va musobaqalarda sportchilarimizning ishtirokini ta'minlash yuzasidan olib borilgan ishlar ko'lamini kengaytirish, xalqaro maydonda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan sportchilarni munosib rag'batlantirish tizimi takomillashtirilgani haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokampaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqqdimot" ko'rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yilning 27-oktabrdagi 02-31-1609-son ma'lumotnomasi). Bu ko'rsatuvlar tomoshabinlarning viloyatda sportni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar haqida keng ma'lumotlar olishiga xizmat qilgan.

Viloyatda mustaqillik yillarida sportning turli sohalarining rivojlanishi, jumladan, yakka kurash va jamoaviy sport turlari bo'yicha o'tkazilgan respublika, mintaqaviy va xalqaro musobaqalarda, shuningdek, Olimpiada sport turlarida erishgan natijalari, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi masalalari haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 4-iyundagi 03-16/5569-son ma'lumotnomasi). Ma'lumotlarda viloyatda yakka kurash va jamoaviy sport turlarini yanada qo'llab-quvvatlash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi aniqlashtirilgan.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda boshqa sport turlari qatorida futbolga e'tibor keng qaratilgani bois viloyatning "Nasaf", Muborakning "Mash'al", G'uzorning "Sho'rtan" futbol jamoalari va xotin-qizlar jamoasi "Sevinch"ning bir qancha sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelayotgani haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi hisobotlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 4-iyundagi 03-16/5569-son ma'lumotnomasi). Unda yoshlarni futbol maktablariga yanada keng jalb etish, viloyatda futbol maktablari sonini kengaytirish lozim ekani qayd etilgan.

Mustaqillik yillarida viloyat bolalar sport maktabida 7 ta sport turi mavjud ekani, 19 ta murabbiy faoliyat ko'rsatib, jami shug'ullanuvchilar 448 nafarni tashkil etgani va Respublika xalqaro turnirda yuqori natijalarni qayd etib kelayotgani haqida ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqdimot" ko'rsatuvining ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 27-oktyabrdagi 02-31-1609-son ma'lumotnomasi). Ma'lumotlarda viloyatda sportni rivojlantirish va yoshlarni ommaviy sport tadbirlariga yanada keng jalb etish, viloyat terma jamoasi a'zolarini sport anjomlari va sport kiyimlari bilan ta'minlash zarurligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola, 5 ta (ulardan 2 tasi xalqaro va 3 tasi respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislari e'lon qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, tadqiqot qismi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning tadrijiy rivoji**" deb nomlangan. Uning birinchi paragrafidagi "*Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasi huquqiy asoslarining yaratilishi va Qashqadaryodagi tatbiqi*" tahlil qilingan.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jismoniy tarbiya va sportga milliy taraqqiyotimiz rivojlanishining muhim omili sifatida katta e'tibor qaratildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishdagi dastlabki qadam 1992-yil 14-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun”ning qabul qilinishi bo‘ldi⁷. Ushbu qonunda mazkur sohaga oid xalqaro hujjatlarda aks etgan normalar o‘z aksini topdi.

Qashqadaryo viloyatida ham mazkur qonun yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jismoniy tarbiya va sport xizmatlari hajmini kengaytirildi, umumta’lim maktablarida, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida qo‘shimcha ravishda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari uyushtirilishi pul bilan ta’minlana boshlandi⁸.

1993-yil 18-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori⁹ qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2000-yilgacha futbolni rivojlantirish milliy dasturi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-mayda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi¹⁰.

Shahrisabz shahrida O‘zbekiston mustaqilligining 6 yilligiga bag‘ishlab milliy kurash bo‘yicha shahar ochiq birinchiligida Osiyo birinchiligi sovrindori Bahodir Shoyimov g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Yana bir sovrin Respublika chempioni Rustam Parmonovga va Osiyo chempioni, jahon kubogi sovrindori Farhod Xo‘jamovga nasib etdi¹¹.

Qashqadaryo viloyatida ham 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlariga tayyorgarlik ishlari yuqori saviyada tashkil etish boshlandi.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz bolalar va o‘smirlar kurash maktabida 12 nafar murabbiy faoliyat ko‘rsatdi, shundan 8 tasi oliy ma’lumotli mutaxassis edi. Jami shug‘ullanuvchilar 438 nafar bo‘lib, ular Respublika turnirlarida yuqori natijalarga erishishdi¹².

2015-yil 23-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi¹³. Qarorga muvofiq 12 ta viloyat, Toshkent shahar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida oliy mahorat maktablari tashkil etildi va har bir maktab turli sport sohalariga ixtisoslashtirildi, mazkur maktablar iste’dodli yoshlarni kashf etishga xizmat qilib keldi.

2016-yil 17-iyun kuni O‘zbekiston suzish federatsiyasi Qashqadaryo viloyati filialiga tegishli terma jamoa a’zolari, “Universiada – 2016” final bosqichi g‘oliblari, 2016-yil Rio-de-Janeyro (Braziliya) shahrida bo‘lib o‘tgan XXXI yozgi

⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 йил, 3 сон.

⁸ <http://lex.uz/uz/docs/-10860>.

⁹ <https://lex.uz/docs/619840>.

¹⁰ <https://lex.uz/docs/413786>.

¹¹ O‘zbekiston Milliy arxivi, M-1-fond, 1-ro‘yxat, 413-ish, 2-varaq.

¹² Qashqadaryo viloyati davlat arxivi, 687-fond, 1-ro‘yxat, 98-ish, 416-varaq.

¹³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 йил 4 сон.

Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga yo'llanmalarni qo'lga kiritishdi, jumladan, Fotimaxon Amilova eng ko'p – 3 ta medal sohibi bo'ldi.

2017-yildan keyingi yillarda jismoniy madaniyat va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilarni tarbiyalash va milliy terma jamoa tarkibini shakllantirish, trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish kabi muhim yo'nalishlar hukumatimizning alohida e'tibor markazida bo'ldi.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ayni vaqtda faqat 14-30 yoshlilar orasidan sport bilan shug'ullanuvchilar soni 285 mingdan ortib, viloyatdagi 4 mingdan ziyod sport-sog'lomlashtirish obyektlari ular uchun xizmat qildi¹⁴.

2022-yil 18-fevral kuni Prezidentning "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq Turizm va sport vazirligi yana ikkiga ajratilib, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi tashkil etildi¹⁵.

Xullas, mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari va milliy sport turlari rivojlantirildi.

Dissertatsiyaning birinchi bob ikkinchi paragrafi "*O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlantirilishida Qashqadaryo viloyatining o'rni*" deb nomlangan. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida sportni rivojlantirish va bu boradagi xalqaro aloqalarni kengaytirish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirildi¹⁶.

1997-yil 21–29-oktabr kunlari Toshkent shahrida I Respublika yoshlar o'yinlari doirasida tennis musobaqalari o'tkazilgan. Musobaqada 1981–1983-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida qashqadaryolik tennischi Avdodin Valeriy Viktorovich 3-o'rinni egalgan¹⁷.

2000-yil 15-aprel kuni Shahrisabz shahridagi "Hisor" o'yingohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun Amir Temur xotirasiga bag'ishlangan III xalqaro an'anaviy kurash turnirida Bahrom Avazov g'oliblikni qo'lga kiritgan¹⁸.

"Universiada – 2007"da ishtirok etgan 139 nafar talaba sportchilarimiz tomonidan 13 ta (1 ta oltin, 6 ta kumush, 6 ta bronza) medallar qo'lga kiritilgan¹⁹.

Mustaqillik yillarida viloyatda sportning yengil atletika turi bo'yicha ham qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Jaloliddin Hamroqulov qisqa masofalar – 100 va 200 metrga yugurishda respublikadagi birinchi raqamli sportchiga aylandi²⁰.

¹⁴ Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi joriy arxivi ma'lumoti.

¹⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-5868604>.

¹⁶ Назирова З. Аввал Қатар, кейин Колумбияга // Қашқадарё, 2015 йил, 27 август.

¹⁷ О'з МА, М-1-fond, 1-ro'yxat, 413-ish, 8-vарақ.

¹⁸ Амир Темур хотирасига бағишланган халқаро турнир // Насаф, 2000 йил 16-30 апрель, 1-варақ.

¹⁹ Ёшлик, гўзаллик, баркамоллик байрами // Насаф, 2007 йил 29 июнь, 1-варақ.

²⁰ Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi joriy arxivi ma'lumoti, 2023-yil 14-may.

O'zbekistonda badiiy gimnastika har qachongidan ham tez va shiddat bilan rivojlandi. Qashqadaryo viloyati sportchilari har yili sport mavsumi boshlanishi arafasida bir guruh gimnastikachilar tayyorgarlik mashg'ulotlarini Rossiya Federatsiyasida o'tkazishni yo'lga qo'yishdi. 2014-yil mart oyida viloyat bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi Dilmira Ashurova Rossiyaning Kirov shahrida bo'lib o'tgan "Yunaya gratsiya" xalqaro turnirida kumush medalni qo'lga kiritdi. Farangiz Ahmedova esa badiiy gimnastika bo'yicha Malayziyada bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida oltin medalga sazovor bo'ldi. Yosh shaxmatchi Sultonbek Tursunov 2014-yilning o'zida avval O'zbekiston chempioni, so'ngra Osiyo chempionatining kumush medali sovrindori sifatida e'tirof etildi²¹.

2014-yili Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida viloyat yoshlar dzyu-do terma jamoasi tarkibida va yakkalik bahslarida 5 ta medalni qo'lga kiritdi. Dilshod Choriyev kumush, Mirzohid Farmonov, Sarvar Shomurodov, Navro'z Jo'raqobilov, Soib Qurbonovlar bronza, karate bo'yicha Shahboz Ahadov bronza medalni qo'lga kiritdi²².

2019-yilning 11–15-sentabr kunlari Hindistonning Dehli shahrida sambo bo'yicha Osiyo chempionatida 62 kg vaznda bellashgan Bohodir Boqiyev birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, qizlar o'rtasida bahslashgan Gulhayo Jo'rayeva 48 kg vaznlilar o'rtasida tengsiz deb topildi²³. 2019-yil oktabr oyida KXDR poytaxtida o'tkazilgan og'ir atletika bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida Osiyo chempionatida qashqadaryolik Tursunoy Jabborova Osiyo chempioni bo'ldi²⁴.

2020-yilning 4-9 noyabr kunlari Serbiya davlatining Noviy Sad shahrida jangovar sambo bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionatida shahrisabzlik Bahodir Boqiyev 62 kg vazn toifasida oltin medal sohibiga aylandi²⁵.

2022-yil may oyida Gretsiyaning Iraklon shahrida og'ir atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida Tursunoy Jabborova dast ko'tarishda 109 kg, siltab ko'tarishda esa 129 kg natija bilan jahon chempionligini qo'lga kiritdi²⁶.

Xullas, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida ommaviy sportni rivojlantirish masalasiga hukumat darajasidagi masala sifatida qaralib, sohada ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Qashqadaryo sportchilari respublika va xalqaro miqyosida o'tkazilgan sport tadbirlarida munosib ishtirok etishdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasida sport turlarining rivojlanishi: istiqbollari va muammolar"** deb nomlanib, unda Qashqadaryoda futbol, kurash va boshqa sport turlarining rivojlantirilishi va muammolari ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirishga e'tibor mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlandi.

²¹ Абдураззоқ Даврон, Рақамлар, натижалар, ғалабалар // Қашқадарё, Спорт. 2015 йил 19 февраль.

²² Шохсупа // Қашқадарё, 2015 йил, 6 январь.

²³ Ғозиев А. Икки нафар спортчимиз Осиё чемпиони бўлди // Қашқадарё спорти, 2019 йил 30 сентябрь, 1-варақ.

²⁴ Қашқадарёлик киз Осиё чемпиони бўлди // Қашқадарё спорти, 2019 йил 30 октябрь, 1-варақ.

²⁵ Офарин сенга, Баходир полвон // Қашқадарё спорти, 2020 йил 30 ноябрь. – 3 б.

²⁶ Турсуной Жабборова жаҳон чемпионлигини қўлга киритди // Қашқадарё спорти, 2022 йил 14 май. – 1 б.

Muborakning “Mash’al” jamoasi 1994-yilgi mavsumni ko‘tarinki ruhda o‘tkazib, muddatidan oldin oliy ligaga yo‘llanma oldi, bu Qashqadaryo futboli yuksalishining ilk debochasi edi. 1997-yilga kelib, viloyat futboli strukturasida o‘zgarish qilindi, “Nasaf” jamoasiga oliy, oliy ligadagi “Mash’al”ga esa birinchi liga maqomi berildi²⁷.

“Nasaf” jamoasi 2000-yilda 3-o‘rinni egalladi. “Nasaf” uchun eng muhimi “yilning eng yaxshi murabbiyi” va hujumchi Zafar Xolmurodovning “hujum qiroli” sovriniga loyiq topilishi bo‘ldi²⁸. Muborakning “Mash’al” va G‘uzorning “Sho‘rtan” jamoalari oliy liga safiga qo‘shilib, kuchlilar safidan joy olib, Qashqadaryoda futbolni birinchi raqamli sport turiga aylantirdi. “Nasaf” jamoasi 2011-yilda Osiyo futbol konfederatsiyasi kubogini qo‘lga kiritdi hamda musobaqaning “halol o‘yin uchun” sovriniga munosib deb topildi²⁹. Qashqadaryo viloyatining bosh futbol jamoasi “Nasaf” o‘tgan yillar davomida O‘zbekiston chempionatida 11 ta bronza, 4 ta kumush, 1 ta oltin, kubok o‘yinlarida esa 6 marta oltin va OFK kubogini qo‘lga kiritdi. Viloyatning yana bir futbol jamoasi “Mash’al” 2006-yilda O‘zbekiston kubogi finalchisi bo‘ldi.

Qashqadaryoda xotin-qizlar futboli 1997-yildan “Qaldirg‘och” jamoasining faoliyati bilan boshlandi. 1999- va 2000-yillarda “Alanga” jamoasi viloyat sharafiga himoya qildi. 2003-yilda “Talaba” jamoasi tashkil etildi va mamlakat chempionatining bronza medaliga ega chiqdi. 2004-yildan boshlab esa jamoa “Sevinch” deb qayta nomlandi. “Sevinch” futbol klubi 2013-yilda Osiyo chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritib, Malayziya va Singapur, so‘ngra Vyetnamda o‘tkazilgan musobaqalarda qatnashib sovrindorlar qatoridan joy oldi³⁰.

“Sevinch” futbol jamoasi ayollar futzali tarixida yagona yetakchi jamoa sifatida ham nom qozonib kelmoqda.

1991–2022-yillar davomida “Sevinch” jamoasi mamlakat chempionatida 14 marta oltin, 4 marta kumush, 1 marta bronza medallarini, 2007-2008, 2008–2009-yillardagi mavsumlarda o‘ziga xos rekord o‘rnatgan holda O‘zbekistondagi ayollar futbolida yutish mumkin bo‘lgan barcha sovrinlarni, 2009-yilda Bolgariyada o‘tkazilgan “Yevropa kubogi” sohibi, Rossiyada bo‘lib o‘tgan “Podmoskovnaya jemchujina” musobaqalarida oltin medallarni qo‘lga kiritdi, Iordaniyadagi xalqaro turnirda kubok egasiga aylandi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida viloyatda futbol rivoji uchun katta amaliy ishlar qilindi. Qashqadaryoda futbol yuqori raqamli sport turiga aylandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ikkinchi paragrafida *Qashqadaryoda kurash sport turining rivojlantirilishi* tahlil etilgan. Mustaqillik yillarida viloyatimizdan Farhod Xo‘janov, Zokir Sharipov, Shavkat Jo‘rayev, Erkin Xoliqovlar dzyu-do bo‘yicha, Bahrom Avezov kurash bo‘yicha Buxarestda va Antaliyada jahon chempioni, aka-uka Isom va Furqat Kenjayevlar yunon-rum kurashi bo‘yicha

²⁷ Юнусов О., Қўчқоров У. Ўзбекистон футиболи. Қашқадарё. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 60.

²⁸ О‘з МА, М-1-fond, 1-ro‘uxat, 10-ish, 24-vagaq.

²⁹ Ўзбек клублари тарихидан – “Насаф” // Қашқадарё спорти, 2022 йил 31 октябрь. – 6 б.

³⁰ Аллаёрова Ф. Катта умид билан. // Қашқадарё ёшлар спорти. 2013 йил 10 август.

jahon chempionati bronza medali, Alisher Muxtorov dzyu-do bo'yicha Osiyo chempioni unvonlariga sazovor bo'ldilar³¹.

1992-yil 9-avgustdan 11-avgustgacha Shahrisabzda Amir Temur xotirasiga bag'ishlangan kurash bo'yicha birinchi xalqaro turnir³², 1993-yil 2–4-aprel kunlari Termiz shahrida At-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan turnir o'tkazildi. Musobaqada qashqadaryolik polvon Isoq Ahmedov g'oliblikni qo'lga kiritdi³³, dzyu-do kurashi bo'yicha Qarshi shahrida 1993-yil 26–29-aprel kunlari O'zbekiston chempionatida viloyat kurashchilari Rinat Chigarev 93 kg vaznda, Odil Xushvaqto'v 71 kg vaznda g'oliblikni qo'lga kiritdi³⁴.

2005-yil aprel oyida Toshkent shahridagi "Jar" sport majmuasida taekvondo bo'yicha birinchi xalqaro "Amir Temur kubogi"da taekvondochilarimizdan Maftuna Pirnazarova, Baxtiniso Saidova, Umida Xoliqova, Asror Yo'ldoshev, Shahbos Allayorovlar birinchi o'rinlarni olib, oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Komil Hamroyev, Shohruh Rajabov, Komil Allayorov, Shohruh Jamilov, Nasim Mamatov, Nodir Qodirov, Nizom Shodiyev, Bobur Qurbonov, Jonibek G'ulomov, Quvonch Rahimov, Quvonch Murodovlar bronza medaliga egalik qilishdi³⁵.

2008-yil 17–20-aprel kunlari Qarshi shahrida dzyu-do kurashi bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda 55 kg vaznda Jasur Avazov birinchi o'rinni³⁶, 2011-yil 1–4-mart kunlari Chirchiq shahrida erkaklar va ayollar o'rtasida tashkillashtirilgan O'zbekiston birinchiligida Dildora To'raqulova, Obida Allado'stovalar 1-o'rin, A. Berdiqulova esa 3-o'rinlarni egallashdi³⁷.

2018-yil 18–20-oktabr kunlari Toshkent shahrida imkoniyati cheklangan sportchilar o'rtasida o'tkazilgan dzyu-do bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasida qo'lga kiritilgan medallar taqsimotiga ko'ra Qashqadaryo viloyati terma jamoasi umumjamo'a hisobda 2-o'rinni egalladi³⁸.

2021-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumani markaziy o'yingohida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlab milliy kurash bo'yicha ochiq turnir o'tkazildi. Musobaqada 73 kg vaznda Serob Ibragimov oltin medalni, +90 kg vaznda esa Sherali Jo'rayev birinchi, Fazliddin Meyliyev ikkinchi, Shahboz Po'latov uchinchi o'rinlarni egallashdi³⁹.

2022-yil aprel oyida Toshkent shahrida Respublika kurash federatsiyasi tomonidan 2021-yilning eng yaxshilari e'lon qilinib, unda "Yilning faxriy kurashchisi" deb qashqadaryolik Abdulrashid Mirzayev, "Yilning ayol kurashchisi"ga yana bir sportchimiz Filura Ergashevalar munosib deb topildi⁴⁰.

³¹ Миллий энциклопедия. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 625–626.

³² QVDA, 623-fond, 1-ro'uxat, 21-ish, 43-varaq.

³³ QVDA, 623-fond, 1-ro'uxat, 3-ish, 23-varaq.

³⁴ QVDA, 623-fond, 1-ro'uxat, 3-ish, 32-varaq.

³⁵ Ибодов Б. Халқаро турнирда // Қашқадарё ёшлар спорти, 2005 йил 22 апрель.

³⁶ QVDA, 687-fond, 1-ro'uxat, 71-ish, 103-varaq.

³⁷ QVDA, 687-fond, 1-ro'uxat, 104-ish, 5-varaq.

³⁸ Бобоев С. Парадзю-дочиларимиз умумжамоада иккинчи // Қашқадарё спорти, 2018 йил 2 ноябрь. – 5 б.

³⁹ Раҳмонов А. Бош соврин Шерали полвонда. // Қашқадарё спорти, 2021 йил 30 март. – 2 б.

⁴⁰ Ўзтироф // Қашқадарё спорти, 2022 йил 15 апрель, 1-varaq.

Xullas, mustaqillik yillarida sportning milliy kurash, dzyu-do, sambo turlarida viloyat sportchilari sovrindorlar qatoridan doimiy ravishda o‘rin egallab keldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi uchinchi paragrafi *Qashqadaryoda turli sport turlarining rivojlantirilishiga* bag‘ishlangan. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida jismoniy tarbiya va sportning turli sohalarini rivojlantirish borasida amaliy ishlar amalga oshirildi. 1991-yil 16–25-sentabrda shaxmat bo‘yicha “Oltin kuz” respublika shaxmat musobaqasida viloyat terma jamoasi a‘zolari I. Abilov, T. Mingboyev, L. Xolmo‘minova, A. Qahramonov, N. Arabov, Sh. Arabov, N. Rahmatovlar muvaffaqiyatli ishtirok etishgan bo‘lsa⁴¹, 1993-yil 3–14-iyulda Qarshi shahrida shaxmat bo‘yicha Ro‘zmet G‘oyipov xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro turnirda viloyat terma jamoasi a‘zolari R. Rajabov, N. Abrayev, D. Mirzayev, B. Alyorov, O. Pardayevlar munosib ishtirok etdilar⁴².

1996-yil 18–19-may kunlari Qashqadaryoda basketbol sportini rivojlantirish maqsadida V.P. Xarlamov xotirasiga bag‘ishlab viloyat basketbol turniri o‘tkazildi⁴³. 1998-yil 2–14-iyun kunlari Samarqand shahrida Respublika II o‘smirlar o‘yini akademik eshkak eshish sporti bo‘yicha o‘yinlarda viloyat sportchilari munosib ishtirok etishdi⁴⁴.

Viloyatda tennis sport turini ommalashtirish tadbirlari ham olib borildi. 2002-yilda Samarqand viloyatida tashkillashtirilgan tennis bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqalarida viloyat tennis jamoasi 3-o‘rinni band etishdi. 2005-yilda Qarshidagi maxsus tennis stadionida navbatdagi ITF taqvimiga kiritilgan tennis turniri bo‘lib o‘tdi.

2011-yil 13–17-oktabr kunlari Toshkent shahrida badiiy gimnastika bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqasida gimnastikachi qizlarimiz Sevara Qobulova, Farangiz Ahmedovalar⁴⁵, 2012-yil 6–7-iyul kunlari V xalqaro ochiq turnir musobaqasida esa viloyatning 11 nafar sportchilari ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egallashdi⁴⁶.

2018-yil 6–11-avgust kunlari Qarshi shahrida Ismat Shukurov xotirasiga bag‘ishlangan shaxmat bo‘yicha “Qarshi Open” xalqaro turnirida ikkinchi o‘rin qashqadayolik shaxmatchi Akmal Fayzullayevga nasib etdi⁴⁷.

2022-yil may oyida Italiyaning Jesolo shahri mezbonlik qilgan para yengil atletika bo‘yicha “Italian Open – 2022” xalqaro Gran-Pri turnirida qashqadayolik Izzat Turg‘unov 2 ta oltin, Asila Mirzayorova esa 1 ta kumush, 2 ta bronza medallarni qo‘lga kiritdi⁴⁸.

Xullas, istiqlol yillarida Qashqadaryo viloyati yoportchilari mahalliy va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan sport musobaqalarida faol ishtirok etib kelishdi. Yengil va og‘ir atletika, tennis va shaxmat musobaqalarida viloyat sportchilari yuqori natijalarga erishdi.

⁴¹ QVDA, 563-fond, 1-ro‘yxat, 20-ish, 108-varaq.

⁴² QVDA, 623-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 52-varaq.

⁴³ QVDA, 623-fond, 1-ro‘yxat, 9-ish, 38-varaq.

⁴⁴ QVDA, 623-fond, 1-ro‘yxat, 11-ish, 53-varaq.

⁴⁵ QVDA, 687-fond, 1-ro‘yxat, 103-ish, 105-varaq.

⁴⁶ QVDA, 687-fond, 1-ro‘yxat, 113-ish, 43-varaq.

⁴⁷ Каримова Л. Боланинг ақлини чархлашда шахматнинг ўрни бошқача // Қашқадарё спорти, 2018 йил 17 август.

⁴⁸ Пара енгил атлетикачиларимиз 17 та медал билан қайтишди // Қашқадарё спорти, 2022 йил 14 май. – 2 б.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qashqadaryoda bolalar sporti: yutuqlar va muammolar”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda *“Bolalar sportiga bo‘lgan e‘tibor va erishilgan natijalar”* hamda *“Bolalar sport inshootlarining moddiy texnik bazasi va muammolari”* tahlil etilgan.

